

## XITOIY TILIDA IJTIMOY MUROJAATLAR AKS ETGAN GENDER XOSLIKLAR MASALASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10359924>

**Farzona NOROVA,**

TDSHU stajyor-o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Tel.: +998972650456; E-mail: [farzona.norova@yandex.ru](mailto:farzona.norova@yandex.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy murojaatlar “Zamonaviy xitoy tili lug‘ati” dan aniqlanib, o‘zaro taqqoslanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ayollar va erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan ijtimoiy murojaatlar orasida salbiy bo‘yoqdorlik ayollarga qo‘llaniladigan murojaatlarda yetakchilik qiladi.

**Kalit so‘zlar:** gender omili, ijtimoiy murojaatlar, tarjima, qiyoslash usuli.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются социальные извлеченные из «Словаря Современного Китайского Языка» и проведено сравнение между ними. Исследование показало, что в женских социальных адресах больше слов с негативной эмоциональной окраской.

**Ключевые слова:** гендерный фактор, социальные обращения, перевод, метод сравнения.

**Annotation.** The given article studies social addresses extracted from Contemporary Chinese Dictionary and carries out comparison between them. The research reveals that the negative emotional colouring dominates in female social addresses compared to men social addresses.

**Keywords:** gender factor, social addresses, translation, comparison method.

Til jamiyat va madaniyatning aksi bo‘lib, bir vaqtda va bir makondagi ijtimoiy va madaniy voqeliklarni yuzaga chiqaradi. Qadimdan hozirgacha, jamiyatning eng asosiy elementlaridan bo‘lgan ayol va erkak genderi, ularning o‘rni har bir millat va madaniyatda muhim o‘rin tutadi. Shu sabab, tilshunoslar va psixologlar “genderni ifodalovchi so‘zlar til tarkibining ajralmas qismi bo‘lib, gender ijtimoiy tuzilishning asosiy elementlaridan biri” deb hisoblashadi [4, 163]. XX asrga qadar, Xitoy jamiyatida erkaklar yuqori pog‘onaga qo‘yilgan, ayollar esa quyi tabaqa sifatida ko‘rilgan. Buning isbotlari “男尊女卑” (nánzūn nǚbēi, ayollar erkaklardan quyi turadi), “夫为妻纲” (fūwèi qīgāng, er ayol uchun namuna bo‘lishi lozim) kabi iboralarda ham o‘z aksini topadi. Genderni ifodalovchi lingvistik vositalar neytral ko‘rinsa-da, u odamning idrok etish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi [3, 269]. Masalan, turmush holati qandayligidan qat’i nazar barcha erkaklarga nisbatan bir so‘z ishlatilsa, ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan “姑娘” (gūniang), “太太” (tàitai) kabi murojaat so‘zlar ularning turmush qurganlik holatiga qarab farqlanib, ikki jins vakillari uchun

turmush qurishning ijtimoiy ahamiyatining farqini ko‘rsatadi. Hozirgi davrda Xitoyda ayollarning jamiyatdagi o‘rni tobora yaxshilanishiga qaramay ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rni orasida hali ham mavjud tafovutlar ularga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarda ham o‘z aksini topadi.

Ushbu maqolada xitoy tilida ayol va erkaklarga ishlatiladigan murojaat so‘zlar “现代汉语词典” (“Hozirgi davr xitoy tili lug‘ati”) dan ayollarga nisbatan 64 ta ijtimoiy murojaat so‘z, erkaklarga nisbatan esa 35 ta ijtimoiy murojaat so‘zlar ajratib olindi. So‘ngra ikki jinsga qo‘llaniluvchi ijtimoiy murojaatlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqdorligi o‘rganilib chiqildi va ushbu murojaatlar o‘zaro qiyoslandi.

*1-jadval. Xitoy tilida ayollarga nisbatan qo‘llaniluvchi ijtimoiy murojaatlar*

№	Ijtimoiy murojaat	Izoh	Tarjima	Emotsion al-ekspressiv holati
1	黄毛丫头 huángmáoyātou	hech narsani tushunmaydigan qizaloq	befahm qiz	salbiy
2	妹子/姐姐/小姐儿 niūzi/niūniū/ xiǎoniūer	qizaloq	qizaloq	neytral
3	丫头 yātou	qiz bola	qizcha	salbiy
4	假小子 jiǎxiǎozi	o‘g‘il bolaga o‘xshash o‘ta sho‘x qiz	shumtaka qiz	salbiy
5	女生 nǚshēng	qiz o‘quvchi	qiz o‘quvchi	neytral
6	室女/闺女/ 少女/女郎 shìniǚ/guāniǚ/ shàoniǚ/nǚláng	turmushga chiqmagan yosh qiz	yosh qiz	neytral
7	处女/黄花女儿 chǔniǚ/huánghuā nǚ’ér	bokira qiz	bokira	ijobiy
8	蹄子 tízi	Shaloq	shaloq	salbiy

9	老姑娘 Lǎogūniáng	qari qiz	qari qiz	salbiy
10	民女 mínnǚ	qadimda oddiy xalq tabaqasidagi qiz	qiz bola	neytral
11	名媛 míngyuàn	mashhur aktrisa	mashhur aktrisa	neytral
12	交际花 jiāojihuā	ijtimoiy jihatdan juda faol qiz	tannoz	salbiy
13	巾帼丈夫 jīnguózhàngfū	qahramon ayol	ayol- qahramon	ijobiy
14	妇女/妇道/ 堂客 fùnǚ/fùdào/ tángkè	ayollarga bo‘lgan umumiy murojaat	ayol	neytral
15	农妇 nóngfù	dehqon oilasidagi ayol-qizlar	dehqon ayol	neytral
16	半边天 bànbīantiān	yangi jamiyat ayol- qizlariga nisbatan murojaat	zamonavi y ayol	ijobiy
17	红妆/红装 hóngzhuāng/hóngzh uāng	yosh qiz	yosh qiz	ijobiy
18	裙钗/脂粉/粉黛/ 巾帼 qúnchāi/zhīfěn/fěnd ài/jīnguó	ayol-qizlarni ifodalovchi murojaatlar	go‘zal ayol	ijobiy
19	娘儿们/女流/老娘 们儿 niáng'ermen/nǚliú/ lǎoniángmèner	xotin (kamsitish ma’nosida)	xotin	salbiy
20	妖精 yāojīng	Jodugar	jodugar	salbiy
21	狐狸精 húlíjīng	tulki (o‘z jozibasi bilan sehrlaydigan ayol)	tulki	salbiy
22	白骨精	makkor va badjahl	zolima	salbiy

	báigǔjīng	ayol		
23	破鞋 pòxié	erkaklar bilan betartib munosabatda bo‘ladigan ayol	yengiltak	salbiy
24	骚货/贱货 sāohuò/jiànhuò	Makkora	makkora	salbiy
25	辣子 làzǐ	janjalkash ayol	shallaqi	salbiy
26	泼妇 pōfù	qo‘pol va nooqilona ish qiladigan ayol	shallaqi	salbiy
27	母老虎 mǔlǎohǔ	shafqatsiz ayol	ona yo‘lbars	salbiy
28	小媳妇/媳妇儿/少 妇 xiǎoxífù/xífuer/shào fù	turmushga chiqqan yosh ayol	kelin	neytral
29	婆娘/婆姨 póniáng/póyí	turmushga chiqqan ayol	xotin	neytral
30	寡妇/孤孀/嫠妇/孀 妇/未亡人/望门寡/ 半边人 guǎfù/gūshuāng/lífù/ shuāngfù/wèiwángré n/ wàngménguǎ/bànbīā nrén	beva	beva	neytral
31	弃妇 qìfù	eri tashlab ketgan ayol	voz kechilgan ayol	salbiy
32	节妇 jiéfù	qadimda eri vafotidan so‘ng boshqa turmush qurmagan ayol	vafodor ayol	ijobiy
33	后婚儿/二婚头/回 头人 hòuhūner/èrhūntóu/ huítóurén	ikkinchi marta turmush qurgan ayol	ikkinchi nikohdagi ayol	salbiy

34	管家婆/主妇 guǎnjiāpó/zhǔfù	oilani boshqaruvchi ayol	oila bekasi	neytral
35	家庭妇女 jiāting fùnǚ	uy bekasi	uy bekasi	salbiy
36	第一夫人 dì yī fūrén	davlat rahbarining turmush o‘rtog‘i	birinchi xonim	ijobiy
37	警嫂 jǐngsǎo	militsiya hodimining turmush o‘rtog‘i	militsiyac hining rafiqasi	neytral

2-jadval. Xitoy tilida erkaklarga nisbatan qo‘llaniluvchi ijtimoiy murojaatlar

№	Ijtimoiy murojaat	Izoh	Tarjima	Emotsion al- ekspressi v holati
1	小小子 xiǎoxiǎozi	o‘g‘il bola	bolakay	neytral
2	儿男/小子 érnán/xiǎozi	o‘g‘il bola	bolakay	neytral
3	哥儿 gē er	boy oiladagi o‘g‘il bola	yosh xo‘jayin	neytral
4	少年/小伙子/后生 shàonián/xiǎohuǒzi/ hòushēng	yosh yigit	yosh yigit	neytral
5	靓仔 liàngzǎi	ko‘rkam yigitcha	ko‘rkam yigit	ijobiy
6	男生 nánshēng	o‘g‘il o‘quvchi	o‘g‘il o‘quvchi/ o‘g‘il talaba	neytral
7	阿飞 āfēi	yengil tabiatli firibgar yigit	bezori	salbiy
8	恶少 èshào	zolim yigit	bezori	salbiy
9	公子哥儿/花花公子 gōngzǐgē er/huāhuā	boy oilada tug‘ilib o‘sgan, bekorchi yigit	olifta	salbiy

	gōngzǐ			
10	阔少 kuòshào	boy oiladagi o‘g‘il farzandlar	boyvachc ha	salbiy
11	白马王子 báimǎ wángzǐ	yosh qizlar orzusidagi yosh yigit	oq otli shaxzoda	ijobiy
12	小白脸儿 xiǎobáiliǎn er	ko‘rkam ko‘rinishga ega bo‘lgan yosh yigit	alfons	salbiy
13	少男 shàonán	uylanmagan yosh yigit	yosh yigit	neytral
14	陈世美 chénshìměi	baland o‘ringa ega bo‘lganidan keyin xiyonat qiladigan er yoki his-tuyg‘ulari beqaror erkak	bevafo er	salbiy
15	负心汉 fùxīn hàn	odatda vafodor ayolning his-tuyg‘ulari bilan o‘ynashadigan va ularga xiyonat qiladigan bevafo erkak	bevafo erkak	salbiy
16	男子汉/男儿 nánzǐhàn/nán'ér	erkaklar baquvvatligi va qat‘iyligini ta’kidlaydi	erkak	ijobiy
17	壮丁 zhuàngdīng	harbiy xizmatni o‘tash yoshiga yetgan yigitlar	yigit	neytral
18	硬汉 yìnghàn	irodali va qat‘iy erkak	irodali erkak	ijobiy
19	大丈夫 dàzhàngfū	maqsadiga ega bo‘lgan yoki qobiliyatli erkak	haqiqiy erkak	ijobiy
20	大汉 dàhàn	gavdali baland erkak	gavdali erkak	ijobiy
21	莽夫 mǎng fū	o‘ylamasdan ish qiladigan erkak	beadab erkak	salbiy
22	农夫 nóngfū	erkak dehqonlarga nisbatan qo‘llanilgan murojaat	dehqon erkak	neytral
23	嫖客 piáokè	fohisha ayollar mijozi	zinogar	salbiy

24	儿郎/男人/丈夫/老 爷们儿 érláng/nánrén/zhàng fū/lǎoyémen er	voyaga yetgan erkak	erkak	neytral
25	单身汉 dānshēnhàn	turmush o‘rtog‘i bo‘lmagan yoki turmush o‘rtog‘i bilan yashamaydigan erkak	bo‘ydoq	ijobiy
26	鳏夫 guānfū	beva erkak	tul erkak	neytral
27	富翁 fùwēng	katta boylikka ega bo‘lgan erkak	boy	neytral

1-jadvaldagi murojaatlarning 29 tasi neytral (bo‘yoqsiz), 23 tasi salbiy bo‘yoqdor, va 12 tasi ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar bo‘lib, 23 ta murojaat so‘zlar ayollarni kamsitish, ularning past o‘rnini ta’kidlash kabi salbiy konnotativ ma’nodarga ega. Erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarning 17 tasi neytral, 10 tasi salbiy bo‘yoqdor va 8 tasi ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan jadvallarni qiyoslash natijasida shuni ko‘rish mumkinki, ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarda salbiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan neytral va ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar orasida tafovut katta bo‘lsa, erkaklarga nisbatan ishlatiluvchi murojaatlarda ijobiy, salbiy bo‘yoqdor va neytral so‘zlar orasida katta tafovut mavjud emas. Ayollarga nisbatan haqorat, kamsitish kabi salbiy munosabatni bevosita ifodalovchi murojaatlar 23 tani tashkil etadi, erkaklarga bo‘lgan bunday munosabatni ifodalovchi murojaatlar esa deyarli 3 baravar kam bo‘lib, 8 ta murojaatdan iboratdir. Bu shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning ayollarga bo‘lgan e’tibori kuchliroq va talablari ko‘proq bo‘lib, ularning nojo‘ya harakati, xatosi yoki kamchiligi jamiyatning qattiq tanqidiga uchraydi. Erkaklarga bo‘lgan 8 ta salbiy murojaat ayollarnikidek og‘ir va keskin emasligi ham ushbu fikrni asoslaydi.

Bundan tashqari, ayollar murojaatlariga nisbatan, erkaklar murojaatlarida yetishmovchiliklar ham mavjud. Misol uchun, agar erkak kishi ayolidan oldin bu dunyoni tark etsa, unda ayoli uning bevasi, ya’ni “遗孀” bo‘ladi. Agar erkak o‘z xotinidan voz kechsa, bunday ayol “弃妇” deb nomlanadi. Agar eri vafot etgandan yoki uni tark etgandan so‘ng ayol qaytadan turmushga chiqmasa, uni “节妇” (vafodor ayol) deya tasvirlashadi; agar qaytadan turmush qursa, uni “后婚儿” (keyingi turmushga chiqqan), “回头人” (orqaga qaragan) deya nomlashadi. Agar erkak ayoli



vafotidan keyin ikkinchi marta turmush qursa, ushbu ayol “填房” (to‘ldirib beruvchi xonadon) deb ifodalanadi.

Ammo yuqoridagi holatlar erkak bilan sodir bo‘lsa, yuqoridagi murojaatga mos keluvchi erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan ifodalar xitoy tilida umuman mavjud emas. Bundan bilish mumkinki, ayollar qayta turmush qurishi, ikkinchi xotin bo‘lishi yoki ma‘lum sabablarga ko‘ra ersiz qolishi jamiyatda ko‘p uchragan va ba‘zida salbiy munosabatga sabab bo‘lgan, lekin bu holatlar erkaklar bilan ko‘p sodir bo‘lmay, sodir bo‘lgan taqdirda ham oddiy hol deb qaralgan. Bunday katta tafovutga ega munosabat qadimda va xattoki hozirda ayollarning pastroq o‘ringa egaligini isbotlaydi.

Xitoy tilida erkaklar murojaatlari aksariyat hollarda ijobiy bo‘yoqdor yoki neytral so‘zlardan tashkil topsa, ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlar orasida qo‘pol va haqoratlovchi, nomusga til tekkizuvchi murojaatlar ko‘p. Jamiyatning ayollarga bo‘lgan talablari hali ham jiddiy va ko‘p bo‘lib, ular tomonidan qilingan xatolar yoki kamchiliklar jiddiyroq tanqidga uchrashiga olib keladi. Bundan tashqari, ayollarning erkaklarga nisbatan bo‘lgan xatti-harakatlari, xulq-atvori, ikkinchi turmushi kabi hodisalarning erkak kishi boshida tushganida, ularga mos bo‘lgan murojaatlarning mavjud emasligi esa jamiyatning erkaklarga bo‘lgan sabrini, yoki ularga bo‘lgan talablarning kamligi, tanqidning kuchli emasligini bildiradi. Bu esa, umuman olganda, xitoy jamiyatida hali ham ma‘lum darajada erkaklar dominantligidan dalolatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):**

[1] – Nizomitdinova Z.A. Development of gender studies in linguistics. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022, no. 10, pp. 941-947.

[2] – Norova F.G‘. Xitoy tilida ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan ijtimoiy murojaatlarning gender xususiyatlari. *NamDU Ilmiy axborotnomasi*, 2023, 5-son, 233-239.

[3] – Prewitt-Freilino, J. & Caswell, T.A. Laakso, E. *The Gendering of Language: A Comparison of Gender Equality in Countries with Gendered, Natural Gender, and Genderless Languages*. *Sex Roles*, 2011, no. 66, pp. 268-281.

[4] – Stahlberg, D., Braun, F., Irmen, L., Sczesny, S. Representation of the sexes in language. In K. Fiedler (Ed.), *Social communication*, 2007, pp. 163-187.

[5] – Stoller R.J. *Sex and Gender: The development of Masculinity and Femininity*. United Kingdom, Routledge. 1994. 400 p.



[6] – Исматуллаева, Н. (2022). Хитой лингвомаданиятида “оила” концепти билан боғлиқ стереотип тил бирликларининг таҳлили. Sharq ma’shali/Восточный факел, 14(1), 82-86.

[7] – 马丽. 汉语性别称谓词研究. 语言与文字学研究, 2007, no. 5, pp. 149-151.

[8] – 尹雪. 汉语性别词争研究. 硕士学位论文. 黑龙江大学, 2012. 51 p.

[9] S Nasirova. [Staff of officials of the Eastern Palace in ancient China](#)// Zien Journal of Social Sciences and Humanities 12, 19-22

[10] S NASIROVA. [Human resource system of ancient China \(chronological aspect\)](#)// SHARQ MASH'ALI, 31-32

[11] SA Nasirova. [Лексико-Семантический Анализ Общественно–Политических Терминов Древнего Китайского Языка: Система Кадровых Ресурсов](#)//Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 17, 20-30

[12] S Nasirova. [ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СИСТЕМЕ ОХРАНЫ ТРУДА ЖЕНЩИН \(НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ОПЫТА КИТАЯ В ВОПРОСЕ РЕПРОДУКТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ\)](#) // Oriental Conferences 1 (1), 796-801

[13] SA Nasirova. [POLITICAL INSTITUTIONALIZATION OF ANCIENT CHINA: HISTORICAL ANALYSIS OF THE TERMS OF THE LOCAL POLITICAL SYSTEM OF ANCIENT CHINA](#)//European International Journal of Multidisciplinary Research and Management ...

[14] SA Nasirova. [RELIGIOUS AFFAIRS MANAGEMENT SYSTEM IN ANCIENT CHINA \(LINGUISTIC ANALYSIS IN DIACHRONIC ASPECT\)](#) //Builders Of The Future 2 (02), 288-297

